TOG‘AY MUROD ASARLARIDA PRESEDENT JUMLALARNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Yuldosheva Begoyim
NavDPI o‘zbek tili adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada pretsedent matnlar haqida ma’lumot berilgan. Pretsedent matnlar Tog‘ay Murod asarlarida keltirilgan maqollardan foydalanib yoritib berildi.
Kalit so‘zlar: pretsedent birliklar, pretsedent matn, maqol, "Boburnoma", segmentli matn, parsellyativ matn, sitatalar.

Pretsedent birliklar orasida pretsedent matnlar muhim o‘rinni egallaydi. Yu.N.Karaulov pretsedent matnlarga shunday ta’rif beradi: “Birdan ortiq shaxsga tegishli bo’lgan, ularning bilish va hissiy munosabatlarida u yoki bu shaxs uchun ahamiyatli bo‘lgan, ya'ni mazkur shaxs bilan aloqador odamlarga juda yaxshi tanish bo‘lgan va, nihoyat, til egalari diskursida qayta-qayta murojaat qilinadigan matnlar" pretsedent matnlardir. Pretsedent matnlar ikki xil tarzda – aynan yoki o‘zgartirilgan holatda qo‘llanishi mumkin. O‘zbek tilidagi matnlar tahlili natijasida aytish mumkinki, til egalarining xotirasida nafaqat pretsedent matnlar, balki ularning mazmuniy-kompozitsion tuzilishiga xos bo’lgan shakllar ham saqlanib turadi. Bunday shakllarga misol qilib segmentli matnlar, parsellyativ matnlar, o‘xshatish, maqol, metafora asosida tuzilgan matnlarni, ilmiy uslubga xos ayrim matn turlarini, rasmiy uslubdagi hujjatlar matnini keltirish mumkin. Pretsedent matnlar ham muhim uslubiy vazifalarni bajaradi. Olimlarning aytishicha pretsedent matnlar ko‘p, ular tarkibiga she'r, she'riy sitatalar, badiiy va musiqaviy asarlar nomlari, kinofilm va ashulalardagi iboralar, reklamalar, latifalar, Qur'on oyatlari va boshqalar kiradi.

Har bir millat va elatning o‘ziga xos urf-odati, an'analari, milliyligi, qadriyati xalq shakllana boshlagan davrlardan balki, undan ham avval shakllangandir. Aynan mana shunday urf-odat va marosimlar xalqning kim ekanligini ko‘rsatib beradi. Yozuvchi Tog‘ay Murod aytganidek: "Xalq nimasi bilan xalq! O‘zining urfodatlari bilan xalq! Ota-bobosidan qolgan milliy an'analari bilan xalq![1] Shulardan eng ahamiyatli va muhimi bu maqollardir. Maqollar bizga qadim o‘zbek xalqining eng botiniy urf-odatlari, an'analari, marosimlari, his-tuyg‘ulari, afsonalari, rivoyatlari, yurish-turishi, turmushi, mehnat faoliyati, jamiki moddiy va ma’naviy olamini aks ettirib beradi. Bunda maqollarning ahamiyatli jihati shuki: Maqol oddiy so‘z yoki gap orqali ifodalangan fikrdan ta'sirli va ixcham shaklga egaligi, xulosa yo‘sinida berilishi, hukm ya'ni rad etilmaydigan, to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilinadigan paremiologik birlik sifatida tilimizda muhim o‘rin egallaydi. Maqollar ko’chma ma’noda yoki o‘z ma'nosida ham qo‘llanishi mumkin. Maqollar soda gap ko‘rinishida ham qo‘shma gap ko‘rinishida ham bo‘lishi mumkin. Maqol-hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan, ixcham obrazli, tugal ma'noli va hikmatli ibora yoki gapdir[2]. "Maqol kamida bitta gapga teng keladi, hukm xarakterida bo‘lib, grammatik fikr ifodalaydi, o‘z ichki grammatik qurilishi jihatidan ham doim gapga teng bo‘ladi, undan anglashilgan mazmun faqatgina tasviriy yo‘l bilan ochiladi".[3]

Pretsedent matnlarda maqollarning qo‘llanilishi matnga ta'sirchanlik, hissiy bo‘yoqdorlik beradi, fikrning inson tafakkurida aniq, ravshan namoyon bo‘lishiga yordam beradi. Badiiy matnlarda

1 T.Tog‘ay Murod " Yulduzlar mangu yonadi". / Qissalar – T. ; " Sharq" 2009. - 47-b

2 Ўзбек тилининг изоҳли луғати (М ҳарфи) А. Мадвалиев таҳрири асосида/ Т. : 1998. 569-бет.

3 B.Jo‘rayeva."O‘zbek xalq maqollarining lingvistik asoslari". "Akademnashr" T. 2019-y.24-bet

pretsedent birliklarning qo‘llanishi orqali ma'lum bir millatning mentaliteti, milliyligi, turmush tarzi haqida ham ma'lumotga ega bo‘lishimiz mumkin. O‘zbek xalq maqollaridan biri “Ishonmagin do‘stingga somon tiqar po‘stingga”. Bu maqol xalq orasida mashhur maqollardan biri hisoblanadi. Badiiy asarlarda ham obrazlarni yoritib berishda bu maqoldan foydalanishadi. Bu maqol hayotda hech kimga ishonmaslik kerakligini, inson insonga do‘st bo‘lolmasligini yoritib beradi. Yana bir maqollardan biri “Ota rozi - Xudo rozi”. Bu maqol bilan har bir farzand dunyoga kelibdi ekan, otasini, onasini rozi qilishi, ularni ranjitmasligi, har bir farzand ota- onasini rozi qilsa yaratgan Olloh ham undan rozi bo‘lishini aytadi. Maqollar xalq bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun ham maqollardan pretsedent birlik sifatida foydalanish bu ma'noni yanada aniq va keng qilib yoritib berishda ham xizmat qiladi.

“Boburnoma” asarini olsak, asarda ham xalq maqollaridan foydalanilgan. “Safi mag‘lubro xus basandast” (Yengilgan safga bir “hoy” kifoyadir), “Inonmag‘il do‘stingga, somon tiqar po‘stingga”, “Dushman ne demas, tushga ne kirmas”, “Uzrash badtar az gunoh” ("Tovbasi gunohidan yomonroq") kabi.

Ko‘rinadiki, qo‘llangan pretsedent birliklarda qahramon hayotining ma’lum bir davri va qilayotgan ishlarining natijalari namoyon bo‘lgan. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, xalq maqollaridan pretsedent birlik sifatida boydalansih bu matnni yanada jozibali, mahoratini keng qilib yoritib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. T.Tog‘ay Murod " Yulduzlar mangu yonadi". / Qissalar – T. ; " Sharq"
2009. - 47-b
2 Ўзбек тилининг изоҳли луғати (М ҳарфи) А. Мадвалиев таҳрири асосида/ Т. : 1998. 569-бет.
3. B.Jo‘rayeva."O‘zbek xalq maqollarining lingvistik asoslari". "Akademnashr" T. 2019-y.24-bet